QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# QASHQADARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI



2024- yil
yanvar



**2024- yilning yanvar oyida, Qashqadaryo viloyatida jami 404,3 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2023- yilning yanvar oylariga nisbatan 118,1 % ni tashkil etdi.**

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



# 2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, *birlikda*

## Yillar kesimida soni




**1578** — Bino va inshootlar qurish

**449** — Fuqarolik obyektlarini qurish

**528** — Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

## Hududlar kesimida




Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 61,8 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023- yilga nisbatan 69,1 % ni tashkil etgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 17,6 % ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023- yilga nisbatan 115,1 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 20,7 % ulushni tashkil etib, 68,7 % tashkil etgan.

# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, *birlikda*

| | Holatiga : | | o‘tgan yiliga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| | 01.02.2023- y. | 01.02.2024- y. | |
| **Qashqadaryo viloyati** | **3444** | **2555** | **74,2** |
| ***shaharlar:*** | | | |
| **Qarshi sh.** | **904** | **729** | **80,6** |
| **Shahrisabz sh.** | **152** | **124** | **81,6** |
| ***tumanlar:*** | | | |
| **G‘uzor** | **138** | **82** | **59,4** |
| **Dehqonobod** | **136** | **83** | **61,0** |
| **Qamashi** | **164** | **102** | **62,2** |
| **Qarshi** | **386** | **295** | **76,4** |
| **Koson** | **325** | **252** | **77,5** |
| **Kitob** | **138** | **112** | **81,2** |
| **Mirishkor** | **105** | **78** | **74,3** |
| **Muborak** | **160** | **110** | **68,8** |
| **Nishon** | **122** | **75** | **61,5** |
| **Kasbi** | **154** | **113** | **73,4** |
| **Ko‘kdala** | **42** | **35** | **83,3** |
| **Chiroqchi** | **184** | **118** | **64,1** |
| **Shahrisabz** | **120** | **97** | **80,8** |
| **Yakkabog‘** | **214** | **150** | **70,1** |



# 2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, *% da*

**Qarshi sh. (28,5)**



**Qarshi (11,5)**



**Koson (9,9)**





# Qurilish ishlari
# 2024- yil yanvar oyi uchun

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| Qashqadaryo viloyati | 404,3 | 84,7 | 192,8 | 126,8 |
| *shaharlar:* | | | | |
| Qarshi sh. | 133,9 | 60,8 | 59,4 | 13,8 |
| Shahrisabz sh. | 20,4 | 6,3 | 11,1 | 3,0 |
| *tumanlar:* | | | | |
| G‘uzor | 29,8 | 0,0 | 20,1 | 9,7 |
| Dehqonobod | 13,5 | 0,0 | 3,6 | 9,8 |
| Qamashi | 9,5 | 0,0 | 5,1 | 4,4 |
| Qarshi | 33,1 | 0,6 | 25,4 | 7,1 |
| Koson | 26,2 | 2,0 | 14,0 | 10,2 |
| Kitob | 24,5 | 0,0 | 12,4 | 12,1 |
| Mirishkor | 11,0 | 0,0 | 2,7 | 8,3 |
| Muborak | 21,1 | 7,2 | 7,2 | 6,7 |
| Nishon | 9,9 | 0,0 | 6,6 | 3,3 |
| Kasbi | 13,4 | 0,0 | 3,8 | 9,6 |
| Ko‘kdala | 5,7 | 0,0 | 0,0 | 5,6 |
| Chiroqchi | 26,2 | 7,8 | 10,9 | 7,6 |
| Shahrisabz | 10,8 | 0,1 | 5,1 | 5,6 |
| Yakkabog‘ | 15,3 | 0,0 | 5,4 | 9,9 |

** Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda*



**2024- yilning yanvar oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 84,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilga nisbatan 177,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2023- yildagi ko‘rsatkich darajasidan 4,3 % punktga ko‘payib, 20,9 % ni tashkil etdi.**

**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




**MA’LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Qarshi shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 45,4 % i yoki 2023- yilga nisbatan 1,2 marta ko‘paydi), Muborak tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 33,9 % i yoki 2023- yilga nisbatan 19,1 marta ko‘paydi ) va Shahrisabz shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 30,7 % i yoki 2023- yiliga nisbatan 25,5 ga ko‘paydi) ga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

**2024- yilning yanvar oyida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 47,7 % i to‘g‘ri kelib, 2023- yil ko‘rsatkichiga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilga nisbatan 120,6 % ni tashkil etgan holda 192,8 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.**




**Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da**

**47,7**
2024- yil Yanvar

**47,9**
2023- yil Yanvar



**MA’LUMOT UCHUN:** *joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Qarshi tumani (25,4 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 76,7 %), G‘uzor tumani ( 20,1 mlrd. so‘m yoki 67,3 %), Nishon tumani (6,6 mlrd. so‘m yoki 66,7 %) ga to‘g‘ri keldi.*

**Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 31,4 % ni tashkil etdi yoki 126,8 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2023- yilga nisbatan 98,8 % ni tashkil etdi.**




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **17,4** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **386,9** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,3 %** va **95,7 %** ni tashkil etdi.



# Mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari 2024- yil yanvar oyida

| | Qurilish ishlari, mlrd so‘m | Davlat mulki | | Nodavlat mulk | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so‘m | ulushi, % da | mlrd.so‘m | ulushi,% da |
| Qashqadaryo viloyati | 404,3 | 17,4 | 4,3 | 386,9 | 95,7 |
| *shaharlar:* | | | | | |
| Qarshi sh. | 133,9 | 17,4 | 13,0 | 116,5 | 87,0 |
| Shahrisabz sh. | 20,4 | | | 20,4 | 100,0 |
| *tumanlar:* | | | | | 100,0 |
| G‘uzor | 29,8 | | | 29,8 | 100,0 |
| Dehqonobod | 13,5 | | | 13,5 | 100,0 |
| Qamashi | 9,5 | | | 9,5 | 100,0 |
| Qarshi | 33,1 | | | 33,1 | 100,0 |
| Koson | 26,2 | | | 26,2 | 100,0 |
| Kitob | 24,5 | | | 24,5 | 100,0 |
| Mirishkor | 11,0 | | | 11,0 | 100,0 |
| Muborak | 21,1 | | | 21,1 | 100,0 |
| Nishon | 9,9 | | | 9,9 | 100,0 |
| Kasbi | 13,4 | | | 13,4 | 100,0 |
| Ko‘kdala | 5,7 | | | 5,7 | 100,0 |
| Chiroqchi | 26,2 | | | 26,2 | 100,0 |
| Shahrisabz | 10,8 | | | 10,8 | 100,0 |
| Yakkabog‘ | 15,3 | | | 15,3 | 100,0 |



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2024- yil yanvar oyida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **57,4** % i yoki **231,9** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**4,7 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **10,9** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **4,7 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **102,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **44,1 %** ni tashkil etdi.

**44,1 %**

**51,2 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **118,7** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **51,2 %** ni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar oyida

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da | Umumiy hajmga nisbatan,% da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati | 404,3 | 118,1 | 100,0 |
| *shaharlar:* | | | |
| Qarshi sh. | 133,9 | 122,7 | 33,1 |
| Shahrisabz sh. | 20,4 | 163,7 | 5,0 |
| *tumanlar:* | | | |
| G‘uzor | 29,8 | 102,4 | 7,4 |
| Dehqonobod | 13,5 | 103,6 | 3,3 |
| Qamashi | 9,5 | 111,6 | 2,4 |
| Qarshi | 33,1 | 110,4 | 8,2 |
| Koson | 26,2 | 111,3 | 6,5 |
| Kitob | 24,5 | 108,5 | 6,1 |
| Mirishkor | 11,0 | 105,4 | 2,7 |
| Muborak | 21,1 | 149,4 | 5,2 |
| Nishon | 9,9 | 117,8 | 2,5 |
| Kasbi | 13,4 | 107,9 | 3,3 |
| Ko‘kdala | 5,7 | 100,3 | 1,4 |
| Chiroqchi | 26,2 | 149,0 | 6,5 |
| Shahrisabz | 10,8 | 114,0 | 2,7 |
| Yakkabog‘ | 15,3 | 94,5 | 3,8 |

**Qashqadaryo viloyati:** **Jami***

**Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda*



***Ma’lumot uchun:*** *Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.*

# Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

| | 2023- yil yanvar | 2024- yil yanvar |
|---|---|---|
| Bino va inshootlarni qurish | 69,3 % | 65,4 % |
| Fuqarolik obyektlarini qurish | 17,3 % | 15,5 % |
| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | 13,4 % | 19,1 % |
| | 100,0 % | 100,0 % |

***Ma’lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi

***ulushi % da***

2023- yil Yanvar

| | 2023- yil Yanvar | 2024- yil Yanvar |
|---|---|---|
| Yirik qurilish tashkilotlari | 0,1 | 4,1 |
| Kichik korxona va mikrofirmalar | 48,8 | 47,9 |
| Norasmiy sektor | 51,1 | 48,0 |



2024- yil Yanvar

Yirik qurilish tashkilotlari — Kichik korxona va mikrofirmalar — Norasmiy sektor

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 4,1 % ni tashkil etib, 2023- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 4,0 % punktga ko‘paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2023- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,9 % punktga kamayib, 47,9 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 3,1 % punktga kamayib, 48,0 % ni tashkil etdi.

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

**Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 10,3 % ni tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan 14,7 % punktga kamaydi.**

**Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 89,7 % (14,7 % punktga ko‘paydi).**

***ulushi % da***



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilga nisbatan 7,9 % punktga kamaydi va 17,8 % ni tashkil etdi. Qolgan 82,2 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2023- yilga nisbatan 7,9 % punktga ko‘paydi.




*Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi*
*Aloqa telefoni: (75) 221 32 47*